



“Shartnomani chegirma bilan qayta rasmiylashtirish” aksiyasini o‘tkazish va unda ishtirok etish shartlari

1. Ushbu shartlar “Shartnomani chegirma bilan qayta rasmiylashtirish” aksiyasi (keyingi o‘rinlarda - Aksiya)ni o‘tkazish va unda ishtirok etish tartibini belgilaydi.
2. Aksiyani o‘tkazish muddati – 2022-yil 25-iyuldan 2022-yil 25-avgustga qadar.
3. Aksiyaning amal qilish hududi - O‘zbekiston Respublikasi, “O‘zMobayl” filialining GSM va CDMA-450 standart tarmoqlari.
4. Aksiyada GSM va CDMA-450 standartidagi tarmoqlarga ulangan, 95/99 kodli pullik toifadagi raqamlar uchun to‘lovni to‘liq amalga oshirgan abonentlar (yuridik va jismoniy shaxslar) ishtirok etishi mumkin.
5. Aksiya amal qilishi davrida pullik toifadagi raqam qayta rasmiylashtirilganda, yangi abonent pullik raqamning toifasiga ko‘ra, uning narxidan 10% ni to‘laydi.
6. “Raqamni ijaraga berish” xizmati orqali ulangan pulli toifadagi raqam qayta rasmiylashtirilsa, amaldagi abonent “Raqamni ijarasi” xizmati bo‘yicha qolgan sikllarning narxini to‘lashi kerak.
7. Aksiyani o‘tkazish muddati va aksiyada ishtirok etish shartlari to‘g‘risidagi ma‘lumotlar “O‘zbektelekom” AKning www.uztelecom.uz rasmiy veb-saytida joylashtiriladi hamda boshqa aloqa vositalari orqali e‘lon qilinadi.
8. “O‘zbektelekom” AK aksiya shartlariga o‘zgartirish kiritish huquqiga ega va ushbu haqda tegishli ma‘lumotlar Kompaniyaning www.uztelecom.uz rasmiy veb-saytida joylashtiriladi hamda boshqa aloqa vositalari orqali ma‘lum qilinadi. Ishtirokchilar aksiya shartlariga tegishli o‘zgartirishlar kiritilganligini Kompaniyaning mazkur rasmiy veb-sayti orqali mustaqil ravishda tekshirib turishlari mumkin.